



**ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA FORS TILIDAN  
 O‘ZLASHGAN TERMINLAR TAHLILI**

**Mavlonov Ahmadjon Hoshimovich**

*O‘qituvchi*

*Samarqand davlat universiteti,*

*Samarqand, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** *Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek she’riyatining, balki tilshunoslik, san’at, madaniyat, ma’rifat va boshqa sohalarning rivojiga ulkan hissa qo‘shtgan buyuk qomusiy olim hamda davlat arbobidir. Uning eng buyuk asarlaridan biri “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat Navoiy, balki turkiy adabiyotning gultojidir. Biz ushbu maqolamizda dostonda qo’llanilgan fors tilidan o‘zlashgan terminlarni tahlil qildik.*

**Kalit so‘zlar:** *Joynamoz, payg‘ambar, ro‘za, ko‘s, kin, kinaxoh, paykor, sipah/sipoh, lashkarshikan, surud, rud, bozigar, soz.*

**Abstract:** *Alisher Navoi is a great encyclopedist and statesman who made a great contribution to the development of not only Uzbek poetry, but also linguistics, art, culture, enlightenment and other fields. One of his greatest works, the epic "Saddi Iskandariy", is not only a masterpiece of Navoi, but also of Turkish literature. In this article, we have analyzed the Persian terms used in the epic.*

**Key words:** *Joynamaz, prophet, fast, kos, kin, kinahoh, paykor, sipah/sipah, lashkarshikan, surud, rud, bozigar, soz.*

Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda: a) so‘z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *g‘isht, go‘sht, daraxt, karaxt, do‘sst, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy so‘zlarda bu holat kam uchraydi): b) kuchsiz lablangan «o» unlisi so‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi<sup>27</sup>.

Qadimda o‘rdak shaklida yasalgan musiqa asbobi bo‘lib, u barbat deyilgan. Navoiy dostonlari lug‘atida barbat so‘zi forscha va arabcha so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgani aytilgan<sup>28</sup>. Bizningcha, bu to‘g‘ri izoh bo‘lmasa kerak. Navoiy dostonlari lug‘atining mualliflari forscha bar va arabcha bat so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan deb hisoblashgan. Lekin bu to‘g‘ri izoh emas. Farhangi zaboni tojik lug‘atida ham **barbat** termini **yunon** tilidan o‘zlashgani aytilgan<sup>29</sup>.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **nukta** leksemasi arab tilidan o‘zlashgani aytilgan (III jild, 65-bet). Ammo tojik tili lug‘atlarida, xususan, farhangi zaboni tojik lug‘atida bu leksema fors tiliga xosligi aytilgan.

<sup>27</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 191.

<sup>28</sup> Навоий асарларининг лугати. – Тошкент, 1972. – Б. 91.

<sup>29</sup> Фарҳанги забони тоҷик.

Bu terminlar ichida **nayshakar** ancha tahliltalab. U ikki qismidan iborat: nay va shakar. Kompozitsiya usuli bilan yangi so‘z yasalgan. Nay ham, shakar ham o‘zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan.

Nay fors tilining o‘z qatlamiga oid so‘z. Shakar leksemasi esa fors tili uchun o‘zlashgan qatlam hisoblanadi. U forschaga hind tilidan kirib kelgan. Bu so‘zga lug‘atda quyidagicha izoh berilgan:

Shakar [f.< qad. hind. sakkhara – shag‘al, qum; qand uni] 1 Lavlagi yoki shakarqamish o‘simligidan sanoat yo‘li bilan olinadigan oq-sarg‘ish rangli qumsimon shirinlik. *Shakar sepilgan qatlama. Shirin so‘z shakardan shirin. Maqol*<sup>30</sup>.

Obnus va sandal terminlari turk tiliga arab tilidan kirgan bo‘lsa-da arab tilining o‘z qatlamiga oid emas. Sandal arab tiliga hind tilidan, obnus esa yunon tilidan o‘zlashgan.

Lug‘atda sandal leksemasiga quyidagicha izoh berilgan:

**SANDAL** II [yun. Sandalon < a. + f. < sansk.] bot. Nihoyatda xushbo‘y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko‘p yillik daraxt (bo‘yoq va xushbo‘y efir moylari olishda foydalaniladi)<sup>31</sup>.

**OBNUS** [a. < yun. ebenos – qora daraxt] Tropik mamlakatlarda o‘sadigan, yog‘ochi qattiq va qoramtilr yoki qora daraxt<sup>32</sup>.

**Qaranful** a. Qalampirmunchoq (mayda mix shaklidagi bir xil xushbo‘y dorivor; rus. gvozdika)<sup>33</sup>.

Demak, bu lug‘atda qaranful arabcha so‘z ekanligi aytilmoqda. Farhangi zaboni tojik lug‘atida esa hind tilidan olingani, hindchaga esa yunon tilidan kirib kelgani aytilgan<sup>34</sup>.

Timsoh termini o‘zbek tilining izohli lug‘atida arab tilidan o‘zlashgani aytilgan bo‘lsa (IV jild, 99-bet), “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida fors tiliga tegishliligi yozilgan (...).

Shuningdek, kashaf terminida ham ikki xillilik mavjud bo‘lib, “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida fors tiliga (...), Navoiy dostonlari lug‘atida esa arab tiliga xosligi (308-bet) yozilgan.

Ba’zi bir mifologik nomlar ham keyinchalik terminga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, nargis termini:

Nargis [f.<yun. Narkisos – yunon mifologiyasida o‘z husniga oshiq bo‘lib, shu ishqidan halok bo‘lgan va ma’budlar tomonidan shu nomdagi gulga aylantirilgan yosh yigit]<sup>35</sup>.

Demak, nargis termini ham xuddi limu kabi yunon tilidan fors tiliga, fors tilidan turk tiliga kirib kelgan ekan.

<sup>30</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси, 2008. – Б. 536.

<sup>31</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси, 2007. – Б. 438.

<sup>32</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси, 2007. – Б. 74.

<sup>33</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Гулом, 1972. – Б. 730.

<sup>35</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 2007. – Б. 17.



CANADA



CANADA

**TO USE THEM VERY APPROPRIATELY IN THE EPIC:**

1. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 64.
3. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Қодиров В., Жўрабоева З. Она тили (Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик). – Тошкент: Маънавият, 2015.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV жилд. – Т., 1983.